Badiiy matnning lingvopoetik tahlili xususida

Rixsiyeva Gulchehra

Til taraqqiyotida muhim omil sanaluvchi badiiy asar matni turli yondashuvlar asosidagi lingvistik tadqiqotlar uchun obyekt hisoblanadi. Aristotel o'zining "Poetika" asarida matn poetikasida so'z tanlashning ahamiyatiga to'xtalgan. Mazkur masalaga V.Grigoryev, Y.Lotman, R.Qo'ng'urov, N. Mahmudov, I.Mirzayev kabi olimlarning ham o'ziga xos qarashlari mavjud.

Badiiy matnni tilshunos adabiyotshunos va stilistdan farqli ravishda tadqiq etadi, ya'ni bunda til materialining turli qatlamlar doirasida matnda aks etgani va u belgilangan maqsadga qay darajada xizmat qilishga yo'naltirilganini aniqlash mihim hisoblanadi. Badiiy asar matnini lingvopoetik tadqiq etish til birliklarining kommunikativ xususiyatlari, poetik, estetik maqsadni ifoda etishdagi o'rnini aniqlashga qaratiladi. Bunda badiiy matn tahlilida faqat shakliy tahlil, til birliklarining nutqda namoyon bo'lishidagi o'ziga xoslik faqatgina qoidalarga muvofiq tarzda emas, balki ijodkorning tasvir yaratish mahorati, asarni yaratishdan maqsadi, obrazning ta'sirchan ifodalanishida tasvir vositalarining o'rni, ma'no nozikliklariga ham e'tibor berish kerak bo'ladi. Lingvopoetik tahlilda aynan bir asar matnida uning poetikligini ta'minlayotgan til va nutq birliklarining: fonetik, leksik, morfologik, sintaktik birliklarning qo'llanish holati, poetiklikni vujudga keltirayotgan hodisalarning mavqei va maqsad uchun xizmatini o'rganishdan iborat bo'ladi. Matn tahlili nafaqat tilda mavjud bo'lgan birliklar doirasida, balki voqelikni ijodkor tomonidan yangicha shakllarda, yangicha mazmunda ifodalanishi ham mumkinligini ko'rsatadi.

Demak, mazkur birliklar ikki xil mavqedan turib o'rganiladi: ijodkornng til birliklaridan adabiy til me'yorlari doirasida foydalanish mahorati va shaxsiy mahorat natijasida vujudga kelgan yangiliklar (okkazional qo'llanishlar).

Bizningcha, ma'lum badiiy matnning lingvopoetik tahlilini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borish mumkin:

- fonetik jihatdan poetiklikka xizmat qiluvchi me'yoriy holatlardagi qo'llanishlar va me'yordan chekinishlar;
- leksik sath doirasidagi tahlil: polisemiya, sinonimiya, antonimiya, omonimiyaning mavjudligi va mavqei, o'zlashma so'zlarning boshqa ma'no va maqsadda qo'llanganligi; arxaizm, istorizm va neologizmlardan foydalanish, chegaralangan leksikaning qo'llanganligi va b.;

- yangi yasalmalar, okkazionalizmlarning mavjudligi;
- iboralardan foydalanish;
- morfologik jihatdan har bir grammatik kategoriya doirasida noodatiy qo'llangan shakl (qo'shimcha)larning tahlili;
- sintaktik konstruksiyalar, gap bo'laklarining tartibi, aktual bo'linish, mantiqiy urg'u va boshqa sintaktik vositalarning qo'llanishi;
- punktuatsion jihatdan poetikani kuchaytirgan tinish belgilarining qo'llanishi kabi.

Bularning barchasi, albatta, semantika bilan tutashadi. Chunki matn semantik jihatdan to'g'ri tahlil etilgan holdagina uning poetik xususiyatlarini lingvistik planda asoslash mumkin bo'ladi. Zero, badiiy til vositalari tahlili ham semantika bilan aloqador. Masalan, istiora, metaforalarning qo'llanishi so'z ma'nosining ko'chishi doirasini, ma'no ko'chish imkoniyatlarini ko'rsatsa, epitet sifat bilan, kinoya turli iboralar bilan, tajnis omonimlar bilan, tazod antonimlar bilan ifodalanadi. Ularning qo'llanishi asarning g'oyasini ochishga qaratilgan bo'lib, buni amalga oshirshda vujudga kelayotgan jihatlar semantik maydonning chegaralari va xususiyatlari bilan aloqador bo'ladi. She'riy matn tahlilida esa she'riy nutqda qo'llanuvchi shakliy unsurlar – vazn, qofiya, turoq, ritm va boshqalarning talabi bilan vujudga kelgan til birliklarining qisqargan holda, inversiya holida, umplitsit holda, transformatsiyaga uchragan va b. hollarda qo'llanishi natijasida turli, yangidan-yangi shakllarning paydo bo'lishiga e'tibor berish kerak bo'ladi.

Badiiy asar tilining tahlili tilni diaxronik planda o'rganish uchun ham muhin ahamiyatga ega. O'zbek tilshunosligida bugungi kungacha badiiy asar matni turli jihatlardan o'rganish manbai bo'lganini ta'kidlagan holda, lingvopoetikaning tadqiq metodlari, maqsad va vazifalari, ilmiy asoslarining barcha jihatlarini qamrab oladigan yagona tizim sifatidagi soha nazariyasini ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

Adabiyotlar:

1. Aristotel. Poetika. Toshkent, 1980.
2. Grigoryev V.V. Poetika slova. Moskva, 1970
3. Mirzayev I.K. Leksicheskiye i morfologicheskiye sredstva formirovaniya rifmi. Tasjkent, 1990.
4. Qudratov T., Lafasov T. Lingvistik tahlil. Toshkent, 1981.